

## МАКТАBLARDA TARBIYA FANINING O'QITILISHI

*Yunusov G'ayratbek Zaynobidinovich*

*Andijon viloyati Marhamat tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi 17-umumta'lim maktabining tarbiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarbiya fanining maqsad va vazifalari uni fan sifatida o'qitilishining ahamiyati, uslubiy ko'rsatmalar, o'quvchi shaxsining rivojlanishida ajdodlarimiz va xalqimizning ularga o'rnak bo'lishi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik jarayon, milliy o'z-o'zini anglash, komillik, qadriyatlar, mafkuraviy immunitet, globallashuv.

*Tilingdan oldin qalbingni tarbiya qil.  
Chunki so'z qalbdan kelib, tildan chiqadi.  
(Jaloliddin Rumiy)*

Tarbiya atamasi biz uchun doimiy ishlatib, nutqimizda ko'p bor tilga olinadigan oddiy so'z bo'lib qolgandir, biroq uning zamirida butun bir xalqning taqdiri turibdi. Go'zal tarbiya sohibigina uni teran anglab yetadi va o'zgalarga yetkaza oladi. Tarbiyali, keng fikrli yoshlar har bir elning orzusi hisoblanadi. Shunday ekan, bunday yoshlarni kamol toptirish, voyaga yetkazish uchun yurtimizda ta'lim sohasida ham keng islohotlar olib borilmoqda. Tarbiya fanining o'quv fani sifatida kiritilishi ham bejiz emas, albatta. Tarbiya fanining mundariyasi bilan tanishganimizda eng kerakli mavzular asosiy tayanch sifatida berilganiga guvoh bo'lamiz. O'quvchilarni bevosita psixologik tomondan ham o'zini boshqarishga o'rgatadi. Har bir mavzu yuzasidan aqlni charxlash uchun savollar, mulohaza uchun mavzular, darsdan ijobiy saboq chiqarish kabi topshiriqlar hayot ummonida umid va ishonch bilan harakat qilayotgan yosh avlodni o'z-o'zini boshqarishga, to'g'ri xulosa chiqarishga undaydi. O'quv jarayonida yakka va guruh bo'lib ishlash, hayotiy voqealar asosidagi videoroliklardan foydalanish, tanqidiy fikrlashga o'rgatish eng to'g'ri, samarali usuldir. Tarbiyasi o'g'ir o'quvchilarni ham to'g'ri yo'lga solishda ular bilan yakkama-yakka suhbat o'tkazish yaxshi natija beradi, albatta. Inson maqomi fe'l-atvor hamda kuchli iroda bilan qo'lga kiritiladi. Insonning mustahkam irodasi, imon-e'tiqodi har qanday mashaqqatlarni yengishda yordam beradi. Dunyo tarixida jamiyatni rivojlantirish, insonlarning erkinligi va farovonligini ta'minlash ham aynan shu fazilatlarga tayanasi.

Ma'naviyat xazinasida esa xalqimizning va jahonda tan olingan olim-u fozillarning hikmatli so'zlari, xalq maqollari o'rin egallagan. Husayn Voiz Koshifiy qalamiga mansub "Axloqi muhsinin"(yaxshi kishilar axloqi ) risolasi ham

o'quvchilarga odob ,tarbiya haqida ilm beradi.Unda shunday satrlar keltirilgan:"Hayo inson uchun eng sharaflı va maqbul xislatdir.Hayo imon daraxtining shoxidir va olam barqarorligiga sababdur ".Hayo va imon doimo yonma-yon yurar ekan ,agar biri yo'qolsa ,unisi ham yo'qolar ekan. Hadisda ham shunday deyilgan.Inson bugungi axborotlashgan jamiyatda o'z hayosini yo'qotmaslik va imonini mustahkam qilish lozimdir.O'quvchilarga hay ova imonini asrash eng muhim tarbiyat ekanini uqtirishimiz shart. Kishining fe'l atvori ,yurish –turishi ,xarakati uning xulqiga bog'liqdir. "Emdi bu yaxshi xulqlarni qo'lga olmak uchun ota-ona ,muallim, ustodlarimiz hazratlarining hikmatli nasihatlarini jon qulog'i birla tinglab ,doim xotirda tutmoq ,axloqi yaxshi kishilar birla ulfat bo'lmak,axloqi buzuq ,yomon kishilardan qochmoq lozimdur."

Albatta yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash uchun unga bilim naqadar to'g'ri yo'l boshchi ekanini anglatishimiz kerak. Rudakiy aytganlaridek "Bilim barcha kulfatlarga qalqon"hisoblanadi.

Biz ilmni yo'limizni yorituvchi nurli yo' ekanligini bugun tushunib yetganimiz yo'q albatta. "Jadidchilik harakati ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak .Uni qancha ko'p o'rgansak, bugun bizni tashvishga solatotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topa olamiz." Deb prezidentimiz bejiz jadidlar harakatini o'rganishga chaqirmagan . Yoshlarni kamol toptirishda tarixiy meroslarimizni o'rni beqiyos ekanligi bilishimiz mumkin .Shularning barchasini qamragan holda tarbiya fani fan sifatida joriy qilindi.

Bu fanni o'rganish orqali hayoti davomida baxt va muvaffaqiyatga erishish sirlarini o'rganadi hamda hayotiy tajribalar bilan tanishadilar, amalda qo'llaydilar. Inson ulg'ayib o'zini anglar ekan, avvalom bir o'z oldiga maqsad qo'ya olish kerak bo'ladi. Umri davomida o'z oldiga qo'ygan maqsadi sari olg'a intilishi, yo'lda uchragan to'siqlardam mardonavor o'ta olish, chidam, bardosh va ,albatta, harakat kerak bo'ladi. Agar inson biror yutuqqa qiyinchilik hamda o'z mehnati bilan erishsa, uning qadr-qimmatı o'zgacha totli bo'ladi. Sunday ekan, biz, pedagoglarning eng oliy maqsadimiz ham o'z sha'ni va or-nomusiga ega, halol, tarbiya ko'rgan yoshlarni voyaga yetkazishdir. Bunday yoshlar kelajakda qaysidir sogada faoliyat yuritmasin, ular avvalom bor, insoniylik fazilatlarini yo'qotmasliklari kerakdir. Ma'lumki, ko'pchilik umri davomida turli-tuman fikrlar bilan band bo'ladilar. Fikr ularni yo'lidan adashtirib qo'yishi ham mumkin. Shunday holatlarda mafkuraviy immunitet tushunchasi orqali ular o'zlarining fikr doirasidan kelib chiqqan holda to'g'ri yo'l tanlay oladi va yot g'oyalardan, ularning ta'siridan xalos bo'la oladi. Go'zal tarbiya, mukammal ong tafakkurni yoshlarga singdirish va hayoti davomida keng o'rin egallashlari uchun buyuk tariximizning o'chmas merosimizdan foydalanishimiz, maqsadimizga erishishni birmuncha osonlashtiradi. Chunki bizning buyuk, ilm-u ma'rifat egalari bo'lgan allomalarimiz , nafaqat. O'rta Osiyo balki butun dunyo fani

taraqqiyotiga ulkan hissa qo`shganlar. Biz anashunday zotlarning kelajak davomchilari ekanligimizni va ularga nisbatan faxr-iftixor tuyg`ularini shakllantirishimiz kerakdir. Bu ulug` zotlarimizning pand-u nasihatlari, nodir qo`lyozmalari, ilmiy asarlari o`quvchilarga ta`lim-tarbiya berishda dastutul amal bajarib kelmoqda. Ajdodlardan qolgan ma`naviy meros yosh avlodlarga omonat hisoblanadi. Shu sababli yurt qadri, insoniylik fazilatlarini, go`zal axloq tushunchalarini anglab yetgan holda ularga sodiq qolishlikka uqtiriladi.

Xalqimizga xos o`zbekona tarbiya topgan ilmga chanqoq, sof tuyg`ularga to`la bo`lgan yoshlarni tarbiya qilish bizning muqaddas burchimizdir. Bizning muqaddas O`zbekistonimiz o`zligi va o`ziga ishongan hamda buyuk kelajakka umid bog`lagan fidoyi insonlar qo`lidadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abu Abdulloh Rudakiy “Hikmatlari” dan
2. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq” asaridan 1967-yil o`qituvchi nashriyoti.
3. Husayn Voiz Koshifiy “Axloqi muxsinin” (“yaxshi kishilar axloqi”) asari 1970-yil nashri.